

«TASDIQLAYMAN»

Bosh direktorning marketing
va sotuvlar bo'yich o'rinbosari
«UMS» MChJ

L.Yu. Filatova

» _____ 2026



TEXNIK TOPSHIRIQ

Toshkent shahridagi ko'p qavatli turar-joy binosi tom qismidan «UMS» MChJ reklama tom qurilmalarini demontaj qilish

«UMS» MChJ ehtiyojlari uchun

Toshkent – 2026

1. Umumiy ma'lumotlar

1.1 Tovarlar tavsifi

Toshkent shahrida ko'p qavatli turar-joy bino tom qismlarida joylashgan 3 dona reklama tom qurilmalarini demontaj qilish hamda «UMS» MChJ Toshkent shahridagi omborhonasiga yetkazib berish.

1.2 Tovarlarini xarid qilish maqsadi

Demontaj va omborhonaga yetqazib berish

1.3 Loyiha asoslari

OPEX

2. Ishtirokchiga qo'yiladigan umumiy talablar

Mos sohada tajribaga ega bo'lishi kerak.

3. Qurilmalar texnik xarakteristikalarini

Reklama qurilma asosini binoning tomiga mahkamlangan tayanch metall rama tashkil etadi. Metall ramaga hajmli yorug'lik «MOBIUZ» logotipi o'rnatilgan

Reklama tom qurilmalari quyidagi manzillarda joylashgan va quyidagi o'lchamlarga ega:

- Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Samarqand darvoza ko'chasi, 9 qavatli bino tom qismida. Metall qurilma umumiy o'lchami: 40m x 6m

- Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Farg'ona yo'li ko'chasi 95A, 9 qavatli bino tom qismida. Metall qurilma umumiy o'lchami: 10m x 6m

4. Yetkazib berish bo'yicha talablar

Qurilmalarni yetkazib berilishi O'zbekiston Respublikasida amal qiladigan "Avtomobil transportida yuk tashish qoidalari" (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 1-avgustdagi 213-son qarori, 1-ilova)ga muvofiq ravishda, maxsus mo'ljallangan yuk transportida amalga oshirilishi lozim.

Qurilmalarni yetkazib berish, shuningdek yuklash-tushirish ishlari Bajaruvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Reklama qurilmalarini yetkazib berish quyidagi manzilga amalga oshiriladi: Toshkent shahri Farg'ona yo'li ko'chasi 15

5. Demontaj ishlari bo'yicha talablar

Barcha demontaj ishlari Bajaruvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Demontaj va yetqazib berish vaqtida hajmli harflarni shikastlanishiga yo'l quymaslik

Reklama qurilmalarni va uskunalarni demontaj qilish Texnik Xavfsizlik bo'yicha ko'rsatmalarga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Balandlikdagi ishlar maxsus tayyorlangan xodimlar tomonidan, balandlikda xavfsiz ishlash uchun mo'ljallangan jihozlardan foydalanilgan holda amalga oshiriladi.

Demontaj vaqtida ish maydoni maxsus vositalar bilan o'ralgan bo'lishi shart va Ishlar olib boriladigan joyda xavfsizlik ta'minlanishi shart.

Joriy ishlar ish kunining tugashi munosabati bilan yakunlangandan so'ng, shuningdek barcha ishlar to'liq bajarilgach, Bajaruvchi o'zidan keyingi hududni tozalashi, chiqindilarni olib chiqishi va ishlar natijasida yuzaga kelgan boshqa oqibatlarni bartaraf etishi shart. Buyurtmachi

mazkur badda nazarda tutilgan majburiyatlar to'liq bajarilmaguncha ish natijalarini qabul qilishdan bosh tortish huquqiga ega.

Ishlar davomida xodimlarning xavfsizligi uchun javobgarlik Bajaruvchiga yuklanadi.

6. Ilovalar ro'yxati

№	Ilova nomi	Varaqalar soni
1	Reklama tom qurilmalarini fotosurati	1

Tuzuvchi:

Reklama ishlab chiqarish bo'limi eksperti



Yu.N. Yuldashev

Kelishilgan:

Reklama ishlab chiqarish bo'limi boshlig'i



M.B. Mirkarimov

Marketing bo'yicha director



Ye.V. Lim

Reklama tom qurilmalarini fotosurati

Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Samarqand darvoza ko'chasi



Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Farg'ona yo'li ko'chasi

